

ODIL YOQUBOV IJODI MATYOQUB QO‘SHJONOV TALQINIDA (Matyoqub Qo‘shjonovning “Qalb pokligi” maqolasi asosida)

Nosirova Setora Narzulla qizi

Termiz davlat universiteti, O‘zbek filologiyasi fakulteti,
Filologiya va tillarni o‘qitish: O‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi,
3-bosqich 121-guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Matyoqub Qo‘shjonov samimiylar haqqoniy munaqqid olim. Odil Yoqubovning ijod yo‘li Matyoqub Qo‘shjonov talqinida ijodiy va haqiqiy yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Matyoqub Qo‘shjonov, Odil Yoqubov, Odil Yoqubov ijod yo‘liga nazar.

“Ma’lumki, tanqidchining kuchi, tanqidchining qadri, uning adabiy jarayonga ko‘rsatuvchi ta’siri bilan belgilanadi. Adabiy jarayonga ta’sir ko‘rsatish uchun tanqidchi g‘oyat chuqur, g‘oyat salmoqli, dalilli fikrlar, muammolar, mulohazalarni o‘rtaga tashlashi kerak. Fikr esa g‘oyibdan hosil bo‘lmaydi. Fikr bilimning hodisasi. Tanqidchi uchun esa g‘ayrat keng doiradagi bilim zapasi kerak”[1], – deya ta’kidlaydi Ustoz Ozod Sharafiddinov o‘zining “Taqnidchilik kasbi haqida” deb nomlangan maqolasida.

So‘zboshi sifatida ushbu fikrlarni bejizga keltirmadik: “El-yurt hurmati”, “Buyuk hurmati uchun” ordenlari sohibi, akademik, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori Matyoqub Qo‘shjonov o‘zining tanqidchilik faoliyatini olib borishda Ustoz Ozod Sharafiddinov ta’kidlagan xususiyatlarga, ya’ni haqiqiy tanqidchi vazifalarini to‘la-to‘kis ado etdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Matyoqub Qo‘shjonov bir qancha ijodkorlar haqida maqola yozar ekan, avvalo, vijdon sofligiga, qalb pokligiga va haqqoniylikka qat’iyan amal qildi. U biror ijodkorni

shunchaki yaxshi ko‘rgani uchun alqab, shunchaki yoqtirmagani uchun loy chaplab yozadigan munaqqidlardan emas edi. Uning mana shunday go‘zal ijod namunalaridan biri yirik adabiy darg‘alarimizdan biri bo‘lgan Odil Yoqubov ijod yo‘liga, shaxsiy faoliyatiga bag‘ishlangan “Qalb pokligi” maqolasidir.

Tanqidchi maqolani boshlar ekan o‘tmishga nazar tashlaydi. Odil Yoqubovning ilk ijod namunalari “Tengdoshlar” hamda “Dadil qadam” deb nomlangan ilk kitoblari to‘g‘risida bahs yuritadi. Asar to‘g‘risida adabiy guruh vakillarining munosabatlarini keltirib o‘tadi va shu o‘rinda Matyoqub Qo‘shjonovning o‘zi ham ushbu asarlarga munosabat bildirar ekan “.... yosh adib uchun ular “dadil qadamlar”, degan ekanman”, degan fikrini faxr bilan esga oladi. Bu esdalik xotiralarni eslar ekan ijodkor fikr bildirishda adashmaganini pinhona faxr bilan takidlab, o‘zidan g‘oyibona mamnun bo‘ladi.

Odil Yoqubov haqida fikr yuritilar ekan, munaqqid Matyoqub Qo‘shjonov Odil Yoqubovni ham mazmun, ham shakl borasida barobar izlanganini, hech qachon o‘z ustida ishlashdan to‘xtab qolmaganini ta’kidlaydi. Adib endi bolalik taassurotlari asosida bitilgan asarlari bilan qanoatlanmay, katta hayot yo‘lidagi haqiqatlar asosida ijod qilishni oldiga maqsad qilgan holda adabiy maydonga “Chin muhabbat”, “Aytsam tilim, aytmasam dilim kuyadi...” kabini asarlarini taqdim etganini samimiyat bilan yodga oladi.

“Muqaddas” qissasi. Odil Yoqubov adabiy ijod olamida tub burilish bo‘lishiga sabab bo‘lgan asar edi. Matyoqub Qo‘shjonov ushbu qissa haqida so‘z yuritar ekan, shunchaki o‘zining qarashlari bilan qanoatlanib qolmay, adabiy jarayonda ko‘zga ko‘ringan yirik vakillarning fikrlarini ham keltirib o‘tadi. Jumladan, Ozod Sharafiddinovning: “Men uning yozuvchi sifatida tug‘ilgan yilini 1961-yil, ya’ni “Muqaddas” qissasi bosilib chiqqan yildan, deb belgilardim”[2], –degan fikrlarini keltirib o‘tadi. Maqolada adib Odil Yoqubov ijodidagi yutuqli jihatlari bilan birgalikda kamchiliklarini ham keltirib o‘tadi. Ammo o‘z kasbining ustasi keltirgan salbiy tanqidiy qarashlarini yumshoqlik bilan izohlaydi. Ya’ni “... bu adibning badiiy mahorat sirlarini egallash borasida yo‘l qo‘ygan chekinishlari oqibati edi...”. Shu o‘rinda

o‘quvchi sifatida munaqqidning “chekinishlari” degan so‘ziga e’tibor qarataylik. Matyoqub Qo‘shtonov bu so‘z o‘rniga jo‘ngina qilib “xatolari” desa ham bo‘lar edi, ammo munaqqid sifatida insoniylik va adib shaxsiyatiga hurmat doiralaridan chetlashmay mana shunday iliq so‘zni tanladi.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, Matyoqub Qo‘shtonov ushbu maqolada Odil Yoqubovning boshqa asarlari to‘g‘risida ham mana shunday haqqoniy va samimiy fikrlar yuritar ekan, har doimgidek ilmiylik, haqiqat va hissiyot, ijodkorlik uyg‘unligida ish olib borgan. Matyoqub Qo‘shtonov faol munaqqidlarimizdan edi. Uning hayolida doimo bir emas, bir necha asarning tahlil qilish rejasi yurardi, u hayotning barcha sohalari bilan, uning hamma masalalari, muammolari bilan yaqindan qiziqadi, ko‘rgan-kechirganlarini, bilganlarini aks ettirish orqali yuragida dard bo‘lib yurgan, boshqalarni ham “bezota qilayotgan” muammolarni, kamchiliklarni topadi hamda tahlil va tanqid qiladi. Matyoqub Qo‘shtonov hayot va adabiyot, yangi asarlar bilan hamnafas munaqqid olim edi. Matyoqub Qo‘shtonov tanqidchilik ilmining katta yo‘liga tushib olgan munaqqid edi. Ustozning qilgan ishlari, qoldirgan asarlari, tanqidchilik faoliyati biz yoshlар учун о‘rnak, namuna bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. B. Karimov. O‘zbek adabiy tanqidi. Antologiya. –Toshkent: Turon-iqbol, 2011,
2. M. Qo‘shtonov. Qalb pokligi // O‘zbek adabiy tanqidi. Antologiya. –Toshkent: Turon-iqbol, 2011, 73-78-betlar.
3. O.Sharafiddinov, Tanqidchilik kasbi haqida // O‘zbek adabiy tanqidi. Antologiya. –Toshkent: Turon-iqbol, 2011, 88-93-betlar.